

## **YALPI HUDUDIY MAHSULOT**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 5 072,3 mld. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 2,3 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 3,9 % ga yetdi.



### **Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	<b>I. YaHM</b>	<b>4 428,9</b>	<b>5 072,3</b>	<b>102,3</b>

*shu jumladan:*

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 272,3	4 894,9	102,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	156,6	177,4	100,8
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>4 272,3</b>	<b>4 894,9</b>	<b>102,4</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	957,2	1 146,1	103,9
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 176,2</b>	<b>1 369,8</b>	<b>105,1</b>
	sanoat	789,1	932,1	107,3

		Mlrd. soʻm		Oʼsish surʼatlari, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	387,1	437,7	100,7
	<b>Xizmatlar</b>	<b>2 138,9</b>	<b>2 379,0</b>	<b>100,2</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlar	464,3	495,1	95,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	320,0	359,0	100,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 354,6	1 524,9	101,8


Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1 765,4 ming soʼmni tashkil etdi va bu koʼrsatkich oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga yuqoridir.



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 23,4 % ni, sanoat tarmog'i 19,0 % ni, qurilish 8,9 % ni va xizmatlar sohasi 48,7 % ni tashkil qildi.


		<b>Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)</b>	
		<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	shu jumladan:		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,5	96,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,5	3,5
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22,4	23,4
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>27,6</b>	<b>27,9</b>
	sanoat	18,5	19,0
	qurilish	9,1	8,9
	<b>Xizmatlar</b>	<b>50,0</b>	<b>48,7</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,9	10,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,5	7,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	31,6	31,3




## NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM  
tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,4 %), sanoatda – 107,3 % (19,0 %), qurilishda – 100,7 % (8,9 %), xizmatlar sohasida – 100,2 % ni (48,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 95,2 % (10,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 100,5 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,8 % dan (31,3 %) iborat bo'ldi.




### Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,2 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 3,0 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 3,1 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,03 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,6 f.p.)ga ko'paydi.




**2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
*(jamiga nisbatan % da)*



2021- yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,3 % va qurilishda – 112,2 % qayd etildi.



### Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)

2020- yil

61,9 %

2021- yil

62,8 %



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 62,8 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 61,9 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi (pasayishi) yirik korxonalar ulushining kamayishi (oshishi) bilan izohlanadi.